

## BOLALARDA NUTQ JARAYONINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNDAGI MUAMMOLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10105198>

**Bozorova Ro'zigul**

*TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Amaliy psixologiya yo'nalishi*

*1-kurs talabasi*

*+998 99 704 96 15*

### **Annotatsiya**

*Mazkur maqolada kichik va o'smir bolalarda nutq jarayonlarining rivojlanishi, ulardagi nutqning to'g'riliqi, yoki kamchiliklari haqida fikr yuritamiz. Bunda nutq buzilishining oldini olish bo'yicha ham ko'plab maslahatlar berib o'tilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*Nutq, biologik konseptsiya, endogen omillar, aliya, afaziya, dizartiriya.*

### **Аннотация**

*В данной статье мы рассмотрим развитие речевых процессов у детей раннего и подросткового возраста, правильность их речи или их недостатки. Также есть много советов, как предотвратить нарушения речи.*

### **Ключевые слова**

*речь, биологическая концепция, эндогенные факторы, алия, афазия, дизартрия.*

### **Annotation**

*In this article, we will consider the development of speech processes in young and adolescent children, the correctness of their speech, or their shortcomings. There are also many tips on how to prevent speech disorders.*

### **Key words**

*Speech, biological concept, endogenous factors, aliyah, aphasia, dysarthria.*

Barchamiz yaxshi bilamizki, inson hayotida nutqning o'rni beqiyos hisoblanadi. Chunki, nutq nafaqat ichki kechinmalarimizni tasvirlab- tavsiflab beradi, balki muloqot jarayoni ham bevosita va bilvosita nutq jarayoni bilan bogliqdir. Shunday ekan, bolalarda nutqning to'gri va ravon rivojlanishi uchun katta e'tibor talab qilinadi. Zero, nutq jarayonining buzilishi, bolalarning kelajakda kim bo'lishlariga, qanday kasbni tanlashi va buni amalga oshirishiga asosiy to'siq bo'ladi. Shuni aytib o'tishimiz joizki, bola tug'ilgandan so'zlay olmaydi, albatta.

Ammo, atrofidagi insonlarning muloqot jarayonida va o'sha muhitda ulg'aya boshlaydi.

Bunda esa, bolalar rivojlangan sayin nutqqa bo'lgan ehtiyoj ham rivojlanib boradi. Endi ular atrofdagi insonlarning gapirgan gaplarini eshitib, ulardan ayrimlarini ayta boshlaydi, ya'ni taqlid qila boshlaydi. Bolaning dastlabki so'zлari ota-onasiga, ovqat, suv kabi sodda so'zlardan tashkil topadi. Bunga sabab: Ular dastlab, ana shu insonlarga; ular orqali esa yuqorida keltirilgan suv, ovqat kabi narsalarga ehtiyoj sezadi. Undan so'ng esa, ehtiyojlarining ko'lami yanada kengayib boraveradi. Endi atrofidagi har bir narsaga juda katta ishtiyoq bilan qiziqa boshlaydi. Bola shaxsining tarkib topishiga ta'lim -tarbiyaning ta'siri deganda, albatta, birinchi navbatda ta'lim muassasalarida, ya'ni bog'cha, maktab interneti kabilarda beriladigan tarbiya tushuniladi. Ammo, bolalar o'sha muassasalardan ko'ra, bolalar o'zining oilasi bilan ko'proq vaqtini o'tkazadi. Bundan ko'rinish turibdiki, bolaning shaxs bo'lib rivojlanishida oilaning ham o'rni beqiyos ekan. Inson shaxsining shaxs bo'lib rivojlanishida muhim hisoblangan konsepsiylar juda ko'p va ular ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bunga misol qilib ikkita konsepsiyanı ko'rsatish mumkin, ya'ni ular biologik va ijtimoiy konsepsiylar nomini olgan. Bu konsepsiyalarning birinchisi insonning rivojlanishi fizik omillar bilan bog'liqligini asoslاب ko'rsatadi. Shuning uchun ham, shaxsning rivojlanishi o'z-o'zidan sodir bo'ladigan xususiyatga egadir. Bilamizki, barcha jarayonlarning negizida biologik konsepsiya yotadi. Biologik konsepsiya nafaqat inson, balki butun bir yer yuzidagi barcha mavjudotlar uchun xos hisoblanadi. Faqat ijtimoiy konsepsiya tufayligina inson ulardan farq qiladi. Demak, anglaganingizdek, ikkinchi konsepsiya bu ijtimoiy konsepsiya hisoblanadi. Unga ko'ra, bola dastlab individ bo'lib, tevarak atrofidagi ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri ostida rivojlanib boradi. Bolalar qanchalik ijtimoiy muhit bilan ko'p muloqotda bo'lsa, uning shaxs sifatida rivojlanishi ham shunchalik tezroq amalga oshib boradi. Aksincha, hech bir joyda o'qimaydigan, faqat uydai o'tiradigan yoki maktab muassasalariga bormasdan tengqurlari bilan muloqotga kirishmagan bolalarda shaxs bo'lib yetishish anchagina mushkulroq. Shuni unutmaslik kerak-ki, inson, avvalo, ijtimoiy jamoada shaxs sifatida shakllanadi. Bundan ko'rinish turibdi-ki, jamiyat ishtirokisiz inson individligicha qolib ketadi.

Ularning nafaqat dunyo qarashlari, balki nutq jarayoni ham sezilarli darajada orqada bo'lishi kuzatiladi. Bolalarni qanchalik eshita bilsak, bergen savollariga erinmasdan javob bersak, ularning oddiy bajargan yumushlarini ham yuqori baholab, ularni rag'batlantirib borsak- bilingki bolalarda o'ziga bo'lган ishonch, yanada faollik yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatadi. Faollik ayni

paytda jarayonlarning jadal va mazmunli kechishini ta'minlab beradi. Ming afsuski, bolalarda hali dunyoga kelmagan paytidayoq turli kasalliklar aniqlanmoqda. Bu kamchiliklar va nuqsonlar turli xil bo'lishi mumkin. Bularidan eng muhimi nutq jarayoni bilan bog'liq bo'lgan kamchilik hisoblanadi. Ushbu kasalliklarning tuzilishi va darajasi ko'pincha miyaning og'ir yallig'lanish darajasiga bog'liq. Negaki, homilaga bo'lgan turli ta'sirlar davrida bu kamchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, mavjud bo'lib shakllana boshlagan organizmning ushbu organizmga yot moddalar bilan ta'sirlanishi, ulardan esa, turli hil zararli moddalarning ajralishi natijasida homilaning to'rt oyligida og'ir miya bilan bog'liq kasallanish paydo bo'ladi. Ushbu jarayonlarning o'rganilishi R. Zokirova tomondan keng o'rganib chiqilgan. U asosan nutq bilan bog'liq bo'lgan kamchilik homiladorlik paytidagi holatlar bilan bog'liq deb tushuntiradi. Yana bir shunga yaqin bo'lgan nazariya Y.M.Mastyukovaga tegishli hisoblanadi. U o'z ishlarida ta'kidlaganidek, onaning homiladorlik davrida nikotin, alkagol, narkotik kabi, inson hayoti uchun salbiy va zararli moddalarning iste'mol qilinishini bolaning asabiy-ruhiy va jismoniy rivojlanishining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida nutq rivojlanmaganligining yana bir ko'rinishini yuzaga keltiradi, shu bilan birga homila jismoniy rivojlanishda ham orqada qoladi, vazni kam bolalar tug'iladi. Nutq rivojlanmaganligi ayni paytda bolalarda harakatning tormozlanishi, yoki uning haddan tashqari kuchayishi, ya'ni idora etib bo'lmas darajada va aqliy mehnatga layoqatlilikning pasayishi bilan nomoyon bo'ladi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, bola miyasining nutq zonalariga zarar keltiruvchi ta'sirlar shakllanib bolgandan keyingi davrlarda ro'y bersa, nutq buzilishining afaziya turi yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Demak, nafaqat bolaning tug'ilmasdan oldin, balki keyin ham nutq jarayoni bilan bog'liq bo'lgan kamchilik yuzaga kelishi mumkin ekan. Shuning uchun, bolaning toki ulg'ayganigacha bo'lgan davri ham juda muhim hisoblanadi. Virusli infeksiyalar; ona va bola organizmi uchun zarur va yetarli darajada oziq-moddalar bilan oziqlanmasligi; ona va bolada kuzatilayotgan jarohat va kasalliklarda to'gri tashhis yo'qligi va o'z vaqtida yordamning ko'rsatilmasligi -bolalarda nutq jarayonining buzilishini yuzaga keltiruvchi asosiy sabablardan hisoblanadi. Bunday sabablarni keltirib chiqaruvchi tashqi ekzogen va ichki endogen omillar, shuningdek, atrof-muhitning tashqi sharoitlari kiradi. Nutq nuqsonlarining turli sabablarini aniqlash, bunga yetarlicha yondashish, ularning turlichal oqibatlari va ularda bo'layotgan har xil ta'sirlarni o'rganish va targ'ib qilish, ayniqsa, hozirgi texnika davrida yanada muhim hisoblanadi. Bu jarayon ko'plab olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan.

Boshlang'ich tadqiqotlar, asosan, Abu Ali Ibn Sino, Sechenov, Arastu va Platon tomonidan olib borilgan.

Bolalarda nutq jarayonlarining buzilishini uch guruhgaga bo'lish mumkin.

1. Ekologik sabablar: Ichki va tashqi radiatsiya; tuproq tarkibida qolib ketgan pestitsidlar va gerbitsidlar; ko'plab korxona va avtotransportlardan chiqadigan zararli moddalar; iste'mol qilinadigan suv va oziq-ovqatlarning talabga javob bermasligi.

2. Tibbiy sabablar: Er- xotinning qarindoshligi; ota-onaning biror-bir nuqsonda bo'lishi; har-xil zararli odatlar (ichkilikbozlik, nashavandlik, kashandalik); abortlar; erta va kech tug'ruqlar; homiladorlikda ham onaning, ham bolaning jarohat va kasalliklari; bakteriyalar bilan bog'liq yallig'lanish.

3. Psixik - ijtimoiy sabablar: Bolaga ota-onsa tomonidan kam e'tibor berilishi; bolalarga nisbatan qattiqqo'llik; oilada bolalar uchun beriladigan haddan tashqari erkinlik; dunyoviy va diniy bilimlarning yetarli emasligi va oila a'zolarining aqliy salohiyatining pastligi; har bir bolaning tog'ri rivojlanishi uchun beriladigan pedagogik, korreksion metodlarning to'g'ri olib borilmasligi va ularning talabga javob bermasligi. Nutq buzilishlari ikki xil ta'sirlovchi tomonidan ro'y beradi:

### **1. Organlik ta'sirlovchi nutq buzilishlar:**

Bu bevosita organizmning biologik jarayoni orqali kechuvchi jarayon hisoblanadi. Bunda bolaning yashashi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini nazarda tutadi. Har bir ehtiyoj o'z yo'nalishini o'zgartirishi, tormozlanishi yoki patologik rivojlanishi orqali nutq jarayoniga ta'sir etadi. Bunda nutq organining aynan biror joyi zararlangan bo'lishi ham mumkin. Nutq jarayoni uchun muhim hisoblangan miyaning markaziy yoki periferik qismlari jarohatlangan bo'ladi, bu esa - aliya, afaziya, dizartiriya kabi nutq kasalliklarini keltirib chiqaruvchi patologik holat hisoblanadi.

### **2. Funksiyaliga ta'sirlovchiovchi nutq buzilishlar:**

Bunda aynan nutq organi emas, balki u orqali boshqa funksiyalarga ham ta'sir etuvchi organlar tushuniladi. Ya'ni biror-bir nutq organi aynan, boshqa bir vazifani bajaruvchi organlarga bevosita yoki bilvosita ta'sir etishi mumkin. Bunga misol qilib, duduqlanishga sabab bo'lувчи hiqildoq, u tufayli o'pka, o'pka orqali nafas olish jarayonini olsak bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerak-ki, bolalarning rivojlanishida har bir jarayonlarning o'rni judayam muhim hisoblanadi. Har bir bilish jarayoni bevosita va bilvosita bir-biri bilan bog'liq. Shunday ekan, bolalarga e'tibor, avvalo, oiladan boshlanadi, ularning kelajagi haqida tushunchalari ham aynan, oilada shakllanadi. Oilada bolalarning har bir hatti-harakatiga e'tibor juda yuqori bo'lishi lozim. Ular

qanday qobiliyat egalari ekanliklarini, nimalarga qiziqadi-yu, nima narsalar ular uchun mushkul ekanligini ota-onas, albatta, bilishlari shart. Zero, bolalar kelajagida nutq jarayoni eng muhim hisoblanadi. Shunday ekan bolalarga e'tiborni, aynan, bugundan boshlashimiz lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjonova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova - Maxsus psixologiya, Toshkent-2013;
2. E.E.G'oziyev- Umumiy psixologiya, Toshkent 2002
3. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova Umumiy psixologiya, Toshkent 2015
4. X.G.Sharafiddinova -Umumiy psixologiya, -Toshkent 2022